

Namangan viloyati  
Statistika boshqarmasi

# NAMANGAN VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

**2022- yil  
Yanvar-may**



# Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'urtalash va har xil turdagi vositachilikka qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi.

**Xizmatlar sohasida  
faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar  
ulushi –  
63,3 %**

**Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi –  
1 930,9  
ming so'm**

**Ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi –  
5 673,1  
mlrd. so'm**

**Xizmatlar sohasida  
kichik tadbirkorlikning  
ulushi –  
67,4 %**

**Ko'rsatilgan  
bozor  
xizmatlarining  
o'sish  
sur'atlari -  
118,0 %**

**Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan xizmatlarning  
o'sish sur'atlari –  
115,4 %**

2022- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar




**Xizmatlar sohasi** bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 673,1** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **1 204,5** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **118,0** % ni tashkil etdi.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari





# Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar

| Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab<br>chiqarilgan xizmatlarning asosiy<br>ko'rsatkichlari<br>(2022- yil yanvar-may oylarida) | Hajmi,<br>mlrd. so'm | 2021- yilga<br>nisbatan<br>o'sish sur'ati,<br>% da |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------|----------------------------------------------------|
| <b>Xizmatlar - jami</b>                                                                                                              | <b>5 673,1</b>       | <b>118,0</b>                                       |
| shu jumladan:                                                                                                                        |                      |                                                    |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari                                                                                                | 286,0                | 123,4                                              |
| Moliyaviy xizmatlar                                                                                                                  | 917,3                | 123,0                                              |
| Transport xizmatlari                                                                                                                 | 993,4                | 114,3                                              |
| shu jumladan: avtotransport xizmatlari                                                                                               | 899,6                | 111,5                                              |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari                                                                                                    | 145,1                | 123,3                                              |
| Savdo xizmatlari                                                                                                                     | 1 934,3              | 119,7                                              |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar                                                                                                | 155,1                | 111,5                                              |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar                                                                                                          | 256,0                | 112,9                                              |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar                                                                                               | 124,9                | 113,8                                              |
| Ijara xizmatlari                                                                                                                     | 117,1                | 122,3                                              |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash<br>bo'yicha xizmatlar                                                                     | 159,8                | 111,0                                              |
| Shaxsiy xizmatlar                                                                                                                    | 360,4                | 108,2                                              |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik<br>sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar                                            | 59,8                 | 106,2                                              |
| Boshqa xizmatlar                                                                                                                     | 163,9                | 128,7                                              |


# Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-may oylarida Boshqa xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **128,7 %**. Nisbatan past ijara xizmatlarida kuzatilgan – **106,2 %**.




## 2022- yil yanvar-may

## Dastlabki ma'lumotlar

2022-yilning yanvar-may oylarida transport xizmatlari hajmi **993,4** mlrd. so'mga teng bo'lib, ularning o'sishi 2021- yilning shu davriga nisbatan **114,3** % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida ushbu turdagi xizmatlarning ulushi **17,5** % ni tashkil etdi.

### Turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi (2022- yil yanvar – may oylarida)



2022- yilning yanvar-may oylarida transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi **90,6** % dan yuqorini tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-may oylarida ushbu transport turi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning ulushi **92,7** % ni tashkil etgan.



2022- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2022- yilning yanvar-may oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **34,1 %** ni tashkil etib, bu **1 934,3** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-may oylarida ularning hajmi **1 456,5** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **32,6 %** iga to'g'ri kelgan.

## Savdo xizmatlari

2022-y.  
yanvar-may

1 934,3  
mlrd. so'm



1 456,5  
mlrd. so'm



Hajmning  
o'sishi

119,7 %



112,6 %

2021-y.  
yanvar-may



2022- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining beshdan to'rt qismini, aniqrog'i, **76,4 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **18,2 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajm avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi **5,4 %** ni tashkil etdi.

## Savdo xizmatlarining tarkibi (2022- yilning yanvar-may oylarida)



**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-may oylarida chakana savdo ulushi **78,7 %** ni tashkil etgan.





2022- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

## Moliyaviy xizmatlar

(2022- yil yanvar-may oylarida)

2022- yil yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **917,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-may oylarida ularning hajmi **741,9** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2022- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **16,2** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-may oylarida ularning ulushi **16,6** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **175,4** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2022- yilning yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **123,0** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-may oylarida ularning o'sish sur'ati **125,1** % ni tashkil etgan.



## 2022- yil yanvar-may

## Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **90,7 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar- may oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **6,2 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **3,1 %** ini tashkil etdi.

### Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2022- yil yanvar-may oylarida)

Yordamchi moliyaviy  
faoliyat

Sug'urta bo'yicha  
xizmatlar



**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **91,1 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta va nafaqa  
ta'minoti bo'yicha  
xizmatlardan tashqari  
moliyaviy xizmatlar

Sug'urta xizmatlarining ulushi **6,5 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar **2,4 %** ni tashkil etgan .

2022- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari




## 2022- yil yanvar-may

## Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2022- yil yanvar-may oylarida ularning ulushi **92,5 %** ni tashkil etdi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da



**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-may oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **93,5 %** ni tashkil etgan.




2022- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2021- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar



2022- yilning yanvar-may oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **256,0** mlrd. so'mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **4,5 %** ini tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan o'sish sur'ati **112,9 %** ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.


## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2022- y.  
Yanvar-may




2021- y.  
Yanvar-may

124,9 mlrd. so'm




Xizmatlar hajmi

2,2 %




Xizmatlarning  
jami hajmidagi ulushi

113,8 %




O'sish sur'ati


99,6 mlrd. so'm



2,2 %



141,7 %



2022- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

100,5 mlrd.  
so'm

145,1 mlrd.  
so'm

Xizmatlar  
hajmi

2021- y.  
yanvar-may

2022- y.  
yanvar-may

117,7 %

123,3 %

O'sish  
sur'ati




2022- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar

2021-yil yanvar-may oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **44,6** mlrd. so'mga ko'paydi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da



2022- yil yanvar-may oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **80,6** % bilan ustunlik qildi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-may oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **82,8** % ni tashkil etgan.



# Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar


| Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan<br>xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari<br>(yanvar-may oylarida) | Hajmi,<br>mlrd. so'm | O'sish sur'ati, % da |              |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------|----------------------|--------------|
|                                                                                                 |                      | 2022- y.             | 2021- y.     |
| <b>Namangan viloyati</b>                                                                        | <b>5 673,1</b>       | <b>118,0</b>         | <b>122,0</b> |
| Namangan sh.                                                                                    | 2 306,6              | 124,4                | 122,5        |
| <b>tumanlar:</b>                                                                                |                      |                      |              |
| Mingbuloq                                                                                       | 210,7                | 113,5                | 124,5        |
| Kosonsoy                                                                                        | 291,7                | 115,3                | 124,2        |
| Namangan t.                                                                                     | 293,2                | 114,1                | 121,2        |
| Norin                                                                                           | 252,2                | 113,0                | 122,2        |
| Pop                                                                                             | 358,2                | 110,7                | 124,9        |
| To'raqo'rg'on                                                                                   | 356,5                | 110,6                | 113,6        |
| Uychi                                                                                           | 343,9                | 115,2                | 121,7        |
| Uchqo'rg'on                                                                                     | 269,8                | 113,6                | 118,2        |
| Chortoq                                                                                         | 305,8                | 112,5                | 121,9        |
| Chust                                                                                           | 395,2                | 121,2                | 125,2        |
| Yangiqo'rg'on                                                                                   | 289,3                | 113,0                | 122,4        |

2022- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.



2022- yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulushni Namangan shahri tashkil etdi – **40,6 %** (2021-yilning yanvar-may oylarida – **35,7 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Mingbuloq tumanida – **3,7 %** (2021- yilning yanvar-may oylarida – **3,6 %**) qayd etildi.

2022- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning  
o'sishi

1 930,9  
ming so'm

375,6 ming  
so'mga



115,4 %

O'sish sur'ati

2022- yilning yanvar-may oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 930,9** ming so'mga yetdi.

2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan o'sish sur'ati **115,4 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:**

2021 - yilning yanvar-may oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **1 555,3** ming so'mni tashkil etgan.

2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan o'sish sur'ati **119,5 %** da qayd etilgan.



2022- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



**Xizmatlar sohasi** xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2022- yilning 1- iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida  
faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar  
to'g'risida ma'lumot**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Xizmatlar  
sohasida faoliyat  
ko'rsatayotgan  
korxona va  
tashkilotlar soni

21 836  
birlik



1 002  
birlikka  
o'sgan

2021- yilning  
mos davriga  
nisbatan ular  
sonining  
o'sishi

2021- yilning  
mos davriga  
nisbatan  
o'sish sur'ati

104,8 %



4,6 %

Ularning  
umumiy  
sonidagi  
ulushi






2022- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

## Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2022- yil yanvar-may oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **67,4** % ni tashkil etdi

## 2022- yilning 1- iyun holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2022- yilning 1- iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **79,7** % ga to'g'ri keldi.

1- may  
holatiga

2021- y.

86,4 %

2022- y.

86,8 %

Xizmatlar sohasi  
statistikasi bo'limi  
Tel.: 69-211-72-00